

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna	
BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна	
KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi	
GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloyevich Jurayev	
YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI.....	77
Nasulloeva Oydinoy Saidovna	



YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI

Nasulloeva Oydinoy Saidovna
Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi
E-mail: oydinnasullayeva37@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6969-0534

Annotatsiya. Yashil innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Iqlim o'zgarishi, resurslar taqchilligi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida yashil infratuzilmani faqat davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish yetarli emasligi asoslangan hamda xususiy sektor investitsiyalari va texnologik salohiyatini jalb etishga yo'naltirilgan sheriklik modellari muhim vosita sifatida baholangan. Qayta tiklanuvchi energetika, shahar transporti, suv va chiqindilarni boshqarish, "yashil" qurilish hamda shaharlarni ko'kalamzorlashtirish yo'nalishlaridagi xalqaro tajriba qiyosiy tahlil qilinib, yashil loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy, ekologik va institutsional omillari hamda mavjud to'siqlari tizimlashtirilgan. O'zbekiston misolida "Nur Navoi" quyosh elektr stansiyasi va Zarafshon shamol elektr stansiyasi loyihalari, davlat-xususiy sheriklikning qonunchilik bazasi hamda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari o'rganilgan. Xitoy tajribasiga oid empirik tadqiqotlar natijalari asosida yashil DXSH loyihalarining shahar hududlarida uglerod chiqindilarini kamaytirishga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari yashil innovatsiyalarni jadallashtirishda institutsional, moliyaviy va boshqaruv instrumentlarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yashil innovatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, yashil iqtisodiyot, yashil infratuzilma, ESG tamoyillari, qayta tiklanuvchi energetika, barqaror rivojlanish, investitsiya mexanizmlari.

Аннотация. Проанализированы роль и значение механизмов государственно-частного партнерства (ГЧП) в развитии зеленых инноваций. Обосновано, что в условиях изменения климата, дефицита ресурсов и ускорения процессов урбанизации финансирование зеленой инфраструктуры исключительно за счет государственного бюджета является недостаточным, в связи с чем модели партнерства, ориентированные на привлечение инвестиций и технологического потенциала частного сектора, рассматриваются как важный инструмент. Проведен сравнительный анализ международного опыта реализации проектов в сферах возобновляемой энергетики, городского транспорта, управления водными ресурсами и отходами, «зеленого» строительства и озеленения городов. Систематизированы экономические, экологические и институциональные факторы, а также существующие барьеры реализации зеленых проектов. На примере Узбекистана рассмотрены проекты солнечной электростанции «Нур Навои» и Зарафшанской ветровой электростанции, законодательная база государственно-частного партнерства и приоритетные направления стратегии перехода к зеленой экономике. На основе результатов эмпирических исследований опыта Китая раскрыто влияние зеленых проектов ГЧП на сокращение выбросов углерода в городских районах. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости комплексного подхода, предусматривающего согласованное применение институциональных, финансовых и управленческих инструментов для ускорения развития зеленых инноваций.

Ключевые слова: зеленые инновации, государственно-частное партнерство, зеленая экономика, зеленая инфраструктура, принципы ESG, возобновляемая энергетика, устойчивое развитие, инвестиционные механизмы.

Abstract. The role and significance of public-private partnership (PPP) mechanisms in the development of green innovation are examined. Under conditions of climate change, resource scarcity, and accelerating urbanization, financing green infrastructure solely from the state budget is shown to be insufficient; therefore, partnership models aimed at mobilizing private-sector investment and technological capacity are considered an important instrument. International experience in renewable energy, urban transport, water and waste management, green construction, and urban greening is comparatively analyzed, with the economic, environmental, and institutional factors and barriers associated with green project implementation systematized. In the case of Uzbekistan, the "Nur Navoi" solar power plant and Zarafshon wind power plant projects, the legislative framework for public-private partnerships, and the priority areas of the transition to a green economy are examined. Drawing on empirical evidence from China, the impact of green PPP projects on reducing carbon emissions in urban areas is assessed. The findings demonstrate the need for an integrated approach that combines institutional, financial, and governance instruments to accelerate the development of green innovation.

Keywords: green innovation, public-private partnership, green economy, green infrastructure, ESG principles, renewable energy, sustainable development, investment mechanisms.



KIRISH

Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning tobora kamayib borishi va shaharlarning jadal sur'atlarda o'sishi zamonaviy iqtisodiyot oldiga yashil infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ymoqda. Shahar hududlari global CO₂ chiqindilarining katta qismini shakllantiradi, biroq ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan yechimlarni yanada tizimli va o'zaro uyg'un tarzda amalga oshirish zarurati mavjud [5]. Faqat davlat byudjeti hisobidan yashil texnologiyalarga investitsiya kiritish imkoniyatlari moliyaviy jihatdan cheklanganligi sababli, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik yashil innovatsiyalarni tezlashtirishning muqobil yo'li sifatida ko'rib chiqilmoqda [1].

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) — davlat tomonidan tartibga solish vakolatlari, yer resurslari va uzoq muddatli kafolatlarni xususiy sektorning moliyaviy, texnik va boshqaruv salohiyati bilan birlashtiruvchi, shartnoma asosidagi hamkorlik shaklidir [1]. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son¹ Qonun ushbu sohada huquqiy asosni yaratdi va investorlarning ishonchini oshirishga, xususiy sektor resurslarini jalb etishga xizmat qildi [2]. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4477-son² qaror energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlarini belgilab berdi [3].

Mazkur maqolaning maqsadi — yashil innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining nazariy asoslarini, xalqaro tajribasini va O'zbekiston sharoitidagi amaliy ko'rinishlarini tizimli tahlil qilish, shuningdek, bunday hamkorlikning samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat-xususiy sheriklik tushunchasi dastlab XX asrning 80–90-yillarida Buyuk Britaniyada davlat xizmatlarini yaxshilash maqsadida shakllangan bo'lib, u yerda "Xususiy moliyalashtirish tashabbusi" maktab, kasalxona va transport infratuzilmasi loyihalarida qo'llanilgan [5]. 2000-yillarda esa DXSH modeli sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy uy-joy va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalariga kengaydi, rivojlanayotgan mamlakatlar ham infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida ushbu mexanizmni faol qo'llay boshladi [5]. 2010-yillardan boshlab DXSH loyihalarini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirilib, endilikda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik natijalarga ham yo'naltirilmoqda [5].

Xalqaro amaliyotda "yashil DXSH" tushunchasi uchta o'zaro bog'liq omillar guruhi asosida tahlil qilinadi: iqtisodiy, ekologik va institutsional [5]. Iqtisodiy omillar qatoriga xarajatlar samaradorligi (davlat va xususiy tomon o'rtasida risklarni taqsimlash orqali erishiladi), xususiy kapitalga kirish imkoniyati va yashil obligatsiyalar kabi moliyaviy vositalarning mavjudligi kiradi [5]. Ekologik omillar orasida qat'iy atrof-muhit me'yorlari, iste'molchilar va investorlar tomonidan barqarorlikka bo'lgan talabning o'sishi hamda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga qaratilgan xalqaro majburiyatlar alohida ahamiyat kasb etadi [5]. Institutsional omillar esa shaffof qaror qabul qilish jarayonlari, manfaatdor tomonlarning ishtiroki va samaradorlikni monitoring qilish tizimlarining mavjudligi bilan bog'liq [5]. Shu bilan birga, yuqori boshlang'ich xarajatlar, daromad oqimlarining noaniqligi, tartibga soluvchi talablarning murakkabligi va moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasi kabi omillar, ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yashil DXSH loyihalarini amalga oshirishda alohida e'tibor talab etadi [5].

So'nggi yillarda yashil DXSH tadqiqotlarida "atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv" (ESG) tamoyillari markaziy o'rin egallamoqda. Manfaatdor tomonlar nazariyasiga ko'ra, tashkilotning barqaror muvaffaqiyati faqat aksiyadorlar emas, balki xodimlar, mijozlar, jamiyat va davlat manfaatlarini muvozanatlashtirishga bog'liq [4]. DXSH mexanizmlari davlat sektorining tartibga solish imkoniyatlarini xususiy sektorning innovatsiyalari va investitsiya salohiyati bilan birlashtirib, ESG tamoyillarini amaliyotga joriy etishning samarali vositasiga aylanmoqda: davlat ekologik standartlar va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni belgilaydi, xususiy sektor esa investitsiya resurslari, boshqaruv tajribasi va texnologik innovatsiyalarni taqdim etadi [4]. Bunday sheriklik, ayniqsa, turizm va mehmondo'stlik kabi sohalarda atrof-muhit ko'rsatkichlarini yaxshilash, ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash va boshqaruv shaffofligini oshirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi [4].

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonun: <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4477-son qaror: <https://lex.uz/docs/-4539502>



Yashil DXSHning real iqtisodiy natijalarga ta'siri bo'yicha empirik dalillar ham to'planmoqda. Xitoyda shahar-yil panel ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tadqiqotda davlat va korxonalar o'rtasidagi yashil hamkorlikning boshqaruvi shahar uglerod chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishi aniqlangan, bu ta'sir tarkibiy, texnologik va taqsimot samaralari orqali namoyon bo'ladi [6]. Bunda loyihaning qaytarish mexanizmi (davlat to'lovi yoki tannarx bo'shlig'ini qoplash), investitsiya hajmi va hamkorlik muddati kattaroq bo'lgan loyihalarda uglerod chiqindilarini kamaytirish samarasi yanada yaqqolroq namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tilgan [6].

O'zbekiston sharoitida DXSH mexanizmi orqali xususiy sektor resurslarini jalb qilishning asosiy vazifasi — davlat va xususiy sheriklarning resurslarini birlashtirish evaziga barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va xususiy investitsiyalarni jalb qilishdan iborat [1]. Qonunchilikka ko'ra, xususiy sherkrlarga subsidiyalar (shu jumladan, loyihadan kafolatlangan minimal daromadni ta'minlashga qaratilgan subsidiyalar), aktivlar va mulk shaklidagi investitsiyalar, byudjet mablag'lari, byudjet kreditlari, grantlar va kredit liniyalari, davlat kafolatlari, soliq va boshqa imtiyozlar ko'rinishida moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatilishi mumkin [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat tahlili metodologiyasiga asoslangan bo'lib, adabiyotlar sharhi va qiyosiy tahlil usullarini o'z ichiga oladi [4]. Dastlabki bosqichda yashil DXSH va ESG mavzusidagi ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, OECD, Osiyo taraqqiyot banki, BMT) hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda turli mamlakatlarda amalga oshirilgan yashil DXSH loyihalari — qayta tiklanuvchi energetika, shahar transporti, suv xo'jaligi, chiqindilarni qayta ishlash, "yashil" qurilish va shaharlarni ko'kalamzorlashtirish sohalari bo'yicha — kontent-tahlil usulida tizimlashtirildi [5]. Tanlangan loyihalar mazmun tahlili yordamida umumiy tendensiyalar, amalga oshirish mexanizmlari, muvaffaqiyat omillari va rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash uchun taqqoslandi [5].

Tadqiqot uchta yo'nalishga qaratilgan: birinchisi, yashil DXSH loyihalarini moliyalashtirish va tartibga solishning institutsional-huquqiy asoslarini o'rganish; ikkinchisi, xalqaro tajribadagi sektorlar kesimida (energetika, transport, suv, chiqindi, qurilish, ko'kalamzorlashtirish) amalga oshirilgan loyihalarni qiyosiy tahlil qilish; uchinchisi, O'zbekistondagi amaliy holatni — mavjud qonunchilik bazasi, amalga oshirilgan loyihalar va ularning natijalarini — xalqaro tajriba bilan taqqoslashdan iborat. Tahlil uchun asosan ikkilamchi ma'lumotlar — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari va ilmiy nashrlardagi empirik natijalar — qo'llanildi [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajribada yashil DXSH loyihalarining sektorlar kesimida taqsimlanishi. Xalqaro amaliyotda yashil DXSH loyihalari asosan olti asosiy yo'nalishda amalga oshirilmoqda: qayta tiklanuvchi energetika, barqaror shahar harakatchanligi, suv va yomg'ir suvlarini boshqarish, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish, "yashil" binolar va shaharlarni ko'kalamzorlashtirish hamda uglerodni yutish loyihalari [5]. Qayta tiklanuvchi energetika sohasida Marokashning Nur Ouarzazate konsentratsiyalangan quyosh stansiyasi (davlat tomonidan yer, kafolat va tartibga solish, xususiy sherik ACWA Power tomonidan loyihalash, qurish va ekspluatatsiya ta'minlangan) hamda Hindistonning Rewa Ultra Mega quyosh parki (Madhya-Pradesh hukumati va Mahindra Renewables kompaniyasi hamkorligida amalga oshirilgan, 750 MVt quvvatga ega) muvaffaqiyatli namunalar sifatida keltiriladi [5]. Braziliyada São Gonçalo quyosh loyihasi davlatning imtiyozli kreditlar orqali moliyaviy yordami va xususiy sektorning (Enel Green Power) operatsion boshqaruvi uyg'unligida amalga oshirilgan [5].

Shahar harakatchanligi sohasida Chilining Santyago shahridagi elektr avtobuslar tarmog'i (xususiy operatorlar moliyalashtiradi va boshqaradi, davlat tartibga solish va subsidiyalarni ta'minlaydi) hamda Hindistonning Dehli metropoliteni misolida xususiy investitsiyalar energiya samaradorligini oshirish va quyosh energiyasini integratsiya qilishga xizmat qilgani ko'rsatilgan [5]. Suv xo'jaligi sohasida Filadelfiyaning "Green City, Clean Waters" dasturi yomg'ir suvini boshqarish infratuzilmasini rivojlantirsa, Singapurning NEWater loyihasi chiqindi suvlarni sanoat va maishiy ehtiyojlar uchun qayta tiklash orqali suv taqchilligini kamaytirishga xizmat qiladi [5]. Chiqindilarni boshqarish sohasida Amsterdamning aylanma iqtisodiyot strategiyalari va Hindistonning Indor shahridagi chiqindilarni manbada saralash tizimi natijasida shahar besh yil ketma-ket Hindistonning eng toza shahri maqomiga ega bo'lgan [5]. "Yashil" qurilish yo'nalishida Nyu-Yorkdagi Empire State binosini modernizatsiya qilish loyihasi energiya sarfini 38 foizga kamaytirgan [5], shaharlarni ko'kalamzorlashtirishda esa Nyu-Yorkning "Million Trees NYC" dasturi davlat, notijorat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar hamkorligida bir milliondan ortiq daraxt ekilishini ta'minlagan [5].

1-jadval

Xalqaro tajribada yashil DXSH loyihalarining sektorlar kesimida taqsimlanishi³

Sektor	Loyiha misoli	Davlat va xususiy sektor vazifasi
Qayta tiklanuvchi energetika	Nur Ouarzazate (Marokash), Rewa quyosh parki (Hindiston)	Davlat — yer, kafolat, tartibga solish; xususiy sektor — moliyalashtirish, qurilish, ekspluatatsiya
Shahar harakatchanligi	Elektr avtobuslar (Santago), Dehli metropoliteni	Xususiy sektor — flotni moliyalashtirish va boshqarish; davlat — subsidiya, tartibga solish
Suv xo'jaligi	"Green City, Clean Waters" (Filadelfiya), NEWater (Singapur)	Davlat — me'yoriy talablar; xususiy sektor — texnologik yechimlar
Chiqindilarni boshqarish	Aylanma iqtisodiyot (Amsterdam), chiqindilarni saralash (Indor)	Davlat — rag'batlantiruvchi siyosat; xususiy sektor — qayta ishlash texnologiyalari
"Yashil" qurilish	Empire State binosi (Nyu-York), Re Paris (Parij)	Xususiy sektor — investitsiya va texnologiya; davlat — standartlar
Ko'kalamzorlashtirish	"Million Trees NYC"	Davlat, notijorat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar hamkorligi

Yashil DXSHning iqtisodiy, ekologik va institutsional omillari hamda mavjud imkoniyatlari. Tahlil shuni ko'rsatadiki, yashil DXSH loyihalarining muvaffaqiyati uchta omil guruhiga bog'liq. Iqtisodiy jihatdan, risklarni davlat va xususiy tomon o'rtasida taqsimlash orqali xarajatlar samaradorligiga erishiladi, bu esa yirik boshlang'ich xarajatlar va noaniqlik yuqori bo'lgan loyihalarda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Shu bilan birga, yashil infratuzilmaning butun xizmat muddati davomidagi xarajatlar tejamkorligi ko'pincha boshlang'ich investitsiyadan yuqori bo'lib, bu davlat uchun moliyaviy jihatdan oqilona tanlovga aylanadi [5]. Xususiy investorlar yashil obligatsiyalar, ekologik ta'sir obligatsiyalari kabi moliyaviy vositalar orqali jalb qilinadi, ular ESG maqsadlariga muvofiqligi va barqaror uzoq muddatli daromad salohiyati sababli yashil infratuzilmaga qiziqish bildiradi [5]. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori boshlang'ich kapital xarajatlari, daromad oqimlarining noaniqligi va arzon moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi loyihalarni amalga oshirishda qo'shimcha moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi [5].

Ekologik omillar orasida qat'iy atrof-muhitni tartibga solish talablari (masalan, Yevropa Ittifoqining "Yashil kelishuvi") xususiy va davlat sektorini yashil hamkorlikka undaydi, tartibga solish talablarining murakkabligi va mintaqalar bo'yicha farqlanishi esa ularni yanada muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi [5]. Institutsional jihatdan esa shaffof qaror qabul qilish, manfaatdor tomonlarning ishtiroki va samaradorlikni monitoring qilish tizimlari investorlar ishonchini oshiradi, loyiha risklarini kamaytiradi va uzoq muddatli barqarorlik natijalarini yaxshilaydi [4; 5].

ESG tamoyillari kesimida tahlil. ESG yondashuvi nuqtai nazaridan yashil DXSH uch o'lchamda baholanadi. Ekologik o'lchamda DXSH loyihalarini qayta tiklanuvchi energetikani, barqaror infratuzilmani, chiqindilarni boshqarish tizimlarini va iqlim o'zgarishiga moslashish loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa davlat siyosati va xususiy sektor innovatsiyasining birgalikda past uglerodli iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishiga xizmat qiladi [4]. Ijtimoiy o'lchamda DXSH ish o'rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish va jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadi; turizm va mehmondo'stlik sohasida bunday sheriklik kasbiy tayyorgarlik dasturlari va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi [4]. Boshqaruv o'lchami esa ESGni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi: shaffof qaror qabul qilish jarayonlari, hisobdorlik mexanizmlari va samaradorlikni monitoring qilish tizimlari investorlar ishonchini mustahkamlaydi va loyiha risklarini kamaytiradi [4].

O'zbekiston tajribasi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar doirasida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 2020-yildagi 1,6 foizdan 2021-yilda 7,4 foizga yetgan, bu asosan eksport hajmining oshishi va ichki talabning tiklanishi hisobiga erishilgan [3]. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida qayta tiklanuvchi energetika loyihalarini muhim o'rin egallamoqda: Osiyo taraqqiyot banki mablag'lari hisobiga 2022-yilda ishga tushirilgan "Nur Navoi" quyosh stansiyasi yiliga 500 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega, 2023-yilda esa Saudiya kompaniyasi ishtirokida ishga tushirilgan Zarafshon shamol stansiyasining quvvati 1500 million kVt/soatni tashkil etadi [3]. Ushbu loyihalar 2030-yilga borib elektr energiyasining 25 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsadiga erishishga xizmat qiladi [3].

Shu bilan birga, sanoat chiqindilarining qayta ishlash ulushi 2021-yilda 18 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 25 foizga yetgan. Mazkur ijobiy o'sish chiqindilarni qayta ishlash

3 Manba: [5] asosida muallif tizimlashtirgan.



infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun asos yaratadi [3]. Xuddi shunday, suv resurslaridan foydalanishning qishloq xo'jaligidagi yuqori ulushi (85 foizga yaqin) suv resurslarini boshqarishda samaradorlikni oshirish, jumladan, "aqlli" sug'orish tizimlarini joriy etishda xususiy sektor texnologiyalarini jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [3]. Bu yo'nalishlarning barchasida O'zbekistonda mavjud DXSH to'g'risidagi qonunchilik bazasi [1; 2] xalqaro tajribada sinovdan o'tgan moliyaviy va institutsional vositalarni — subsidiyalar, davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari, yashil obligatsiyalarni — joriy etish uchun tayyor huquqiy zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, yashil innovatsiyalarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka davlat resurslari va bozor mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirish, ya'ni ikki tomonning institutsional, moliyaviy va texnologik salohiyatini birlashtirgan davlat-xususiy sheriklik modelidan foydalanish orqali erishish mumkin. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, yashil DXSH loyihalarining muvaffaqiyati uchta o'zaro bog'liq omilga — mustahkam institutsional-huquqiy bazaga, xususiy sektorning uzoq muddatli moliyaviy ishtirokiga va manfaatdor tomonlarning moslashuvchan hamkorlik mexanizmlariga — bog'liq [5]. ESG tamoyillarining DXSH loyihalariga integratsiyalashuvi esa nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va boshqaruv natijalarini ham yaxshilash imkonini beradi [4]. Xitoy misolidagi empirik dalillar esa bunday hamkorlikning shahar uglerod chiqindilarini real kamaytirishga ta'sirini tasdiqlaydi [6].

O'zbekiston uchun DXSH to'g'risidagi qonunchilik bazasi [1; 2] va yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi [3] allaqachon shakllangan bo'lib, "Nur Navoi" va Zarafshon kabi loyihalar amaliy natijalarni namoyish etmoqda. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash va suvdan foydalanish samaradorligi kabi yo'nalishlarda xalqaro tajribada sinalgan yechimlarni — masalan, aylanma iqtisodiyot modellarini, "aqlli" sug'orish texnologiyalarini va yashil obligatsiyalar mexanizmini — kengroq joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday kompleks yondashuv nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Khashimova S. N., Abdikarimova A. A. Public-Private Partnership in Green Economy Efficiency // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2024. – Vol. 28. – ISSN 2751-1731.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni.: <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>
3. Khodjjeva D. Sustainable Economic Development and Principles of Green Economy of Uzbekistan in 2017–2024 // Journal of Sustainable Development and Green Technology (JSDGT). – 2025. – Vol. 5, No. 1. – P. 9–13. – DOI: 10.54216/JSDGT.050103.
4. Khusenova M. Public-Private Partnership in ESG Implementation: Opportunities and Challenges for Sustainable Development // Innovation Science and Technology. – 2026. – № 6. – B. 111–114.
5. Owojori O. M., Erasmus L. J. Public-Private Partnerships as Catalysts for Green Infrastructure: A Three-Pronged Analysis of Economic, Environmental, and Institutional Factors // Frontiers in Sustainable Cities. – 2025. – Vol. 7. – Art. 1591278. – DOI: 10.3389/frsc.2025.1591278.
6. Wang S., Liu C., Zhou Z. Government-Enterprise Green Collaborative Governance and Urban Carbon Emission Reduction: Empirical Evidence from Green PPP Programs [Elektron resurs]. – SSRN, 2024. – URL: <https://ssrn.com/abstract=4752930>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori.: <https://lex.uz/docs/-4539502>
8. Asian Development Bank. Green Economy and Sustainable Development in Uzbekistan. – Manila: Asian Development Bank, 2022. – 180 p.
9. World Bank. Yashil, barqaror va inkluziv rivojlanish: O'zbekiston uchun diagnostika. – Washington, DC: World Bank, 2022. – 140 b.
10. World Bank. Uzbekistan Economic Update. – Washington, DC: World Bank, 2022. – 150 p.
11. Sirojov Z. Davlat-xususiy sheriklik asosida davlat ahamiyatiga molik bo'lgan dasturlarni amalga oshirishda xorijiy davlatlar tajribasi // Jamiyat va boshqaruv. – 2018. – № 2.
12. OECD. Public-Private Partnerships and Sustainable Development. – Paris: OECD Publishing, 2023.
13. World Bank. Public-Private Partnerships Reference Guide. – Washington, DC: World Bank, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>